Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2024-yilning yanvar-mart oylarida Namangan viloyati bo‘yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o‘rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 9 253,8 mlrd. so‘mni tashkil etdi va 2023-yilning yanvar-mart oylari bilan taqqoslaganda 8,3 % ga o‘sdi.

YAHM deflyator indeksi 2023-yilning yanvar-mart oylari narxlariga nisbatan 111,2 % ni tashkil qildi.

O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha YAIMning shakllanishida Namangan viloyatining qo‘shgan hissasi 3,8 % ga yetdi.

## 2024- yilning yanvar-mart oylarida Namangan viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot






YAHM o‘sish sur’ati

YAHM hajmi

YAHM deflyator indeksi

YAIMga qo‘shgan hissasi

## 2024- yilning yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o‘sish sur’atlari

| | *Mlrd. so‘m* | | ***O‘sish sur’atlari,*** *o‘tgan yilning mos davriga nisbatan % da* |
|---|---|---|---|
| | ***2023- yil*** | ***2024- yil*** | |
| **I. YAHM, jami** | **7 678,6** | **9 253,8** | **108,3** |
| *shu jumladan:* | | | |
| tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati | 7 458,4 | 9 059,9 | 108,3 |
| mahsulotlarga sof soliqlar | 220,2 | 193,9 | 109,3 |
| **II. Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati** | **7 458,4** | **9 059,9** | **108,3** |
| **qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi** | **1 510,0** | **1 722,9** | **104,3** |
| **sanoat (qurilishni qo‘shgan holda)** | **2 008,4** | **2 388,1** | **109,8** |
| sanoat | 1 450,6 | 1 760,4 | 109,8 |
| qurilish | 557,8 | 627,7 | 109,8 |
| **xizmatlar** | **3 940,0** | **4 948,9** | **109,1** |
| savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar | 793,3 | 961,8 | 111,3 |
| tashish va saqlash, axborot va aloqa | 586,4 | 760,3 | 119,5 |
| boshqa xizmat tarmoqlari | 2 560,3 | 3 226,8 | 106,0 |

# YALPI HUDUDIY MAHSULOTNI ISHLAB CHIQARISH



Quyida keltirilgan infografikadan ko‘rinib turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 3 011,3 ming so‘mni tashkil etdi va bu ko‘rsatkich o‘tgan yilga nisbatan 6,0 % ga yuqoridir.

## 2024- yilning yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi

*(ming so‘mda)*

| Yil | Qiymat |
|---|---|
| 2023- yil | 2 555,3 |
| 2024- yil | 3 011,3 |

## 2024- yilning yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHMning o‘sish sur’atlari

*(o‘tgan yilning mos davriga nisbatan % hisobida)*

| Yil | Qiymat |
|---|---|
| 2023- yil | 103,9 % |
| 2024 yil | 106,0 % |

## Yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YAHM tarkibi

*(jamiga nisbatan % da)*

| | *2023- yil* | *2024- yil* |
|---|---|---|
| **I. YAHM, jami** | **100,0** | **100,0** |
| *shu jumladan:* | | |
| tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati | 97,1 | 97,9 |
| mahsulotlarga sof soliqlar | 2,9 | 2,1 |
| **II. Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati** | **100,0** | **100,0** |
| **qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi** | **20,2** | **19,0** |
| **sanoat (qurilishni qo‘shgan holda)** | **26,9** | **26,3** |
| sanoat | 19,4 | 19,4 |
| qurilish | 7,5 | 6,9 |
| **xizmatlar** | **52,9** | **54,7** |
| savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar | 10,6 | 10,6 |
| tashish va saqlash, axborot va aloqa | 7,9 | 8,4 |
| boshqa xizmat tarmoqlari | 34,4 | 35,7 |

# YALPI HUDUDIY MAHSULOTNI ISHLAB CHIQARISH

2024-yilning yanvar-mart oylarida hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 97,9 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 2,1 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining YAHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi 19,0 % ni, sanoat tarmog‘i 19,4 % ni, qurilish 6,9 % ni va xizmatlar sohasi 54,7 % ni tashkil qildi.

## Yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlaribo‘yicha YAHM tarkibi *(jamiga nisbatan % da)*




Yalpi qo‘shilgan qiymat    Mahsulotlarga sof soliqlar

YAHM o‘sishiga qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi tarmog‘i 0,9 f.p. (2023-yilning yanvar-martida – 0,8 f.p.), sanoat tarmog‘i – 1,8 f.p. (2023-yilning yanvar-martida – 0,7 f.p.), qurilish tarmog‘i – 0,7 f.p. (2023-yilning yanvar-martida – 0,3 f.p.) va xizmat ko‘rsatish sohasi – 4,7 f.p. (2023- yilda – 3,9 f.p.) ijobiy hissa qo‘shdi.

Mahsulotlarga sof soliqlarning o‘sishi hisobiga YAHM 0,2 f.p. (2023- yilning yanvar-martida – 0,5 f.p.)ga kamaydi.

## 2024- yilning yanvar-mart oylarida YAHM o‘sishida tarmoqlarning hissasi
*(jamiga nisbatan % da)*

**YAHM**

**8,3 %**

**Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi**

**0,9 %**

**Sanoat**

**1,8 %**

**Qurilish**

**0,7 %**

**Xizmatlar**

**4,7 %**

**Mahsulotlarga sof soliqlar**

**0,2 %**

# YALPI HUDUDIY MAHSULOTNI ISHLAB CHIQARISH

2024-yilning yanvar-mart oylarida YAHMning o‘sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o‘sish sur’atlari bilan bog‘liqdir. O‘sish sur’atlari qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida 104,3 % (YAHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi – 19,0 %), sanoatda – 109,8 % (19,4 %), qurilishda – 109,8 % (6,9 %), xizmatlar sohasida – 109,1 % ni (54,7 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o‘sish sur’atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlarda 111,3 % (10,6 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 119,5 % (8,4 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 106,0 % dan (35,7 %) iborat bo‘ldi.

## Yanvar-mart oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha mutlaq o‘sish sur’atlari

*(o‘tgan yilning mos davriga nisbatan % da)*

| 2023- y. | | 2024- y. |
|---|---|---|
| 6,2 % | YAHM | 8,3 % |
| 3,9 % | Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi | 4,3 % |
| 4,1 % | Sanoat | 9,8 % |
| 4,5 % | Qurilish | 9,8 % |
| 7,6 % | Xizmatlar | 9,1 % |

# YALPI HUDUDIY MAHSULOTNI ISHLAB CHIQARISH



2024-yilning yanvar-mart oylarida YAHM deflyatori indeksi 2023-yilning yanvar-mart oylaridagi narxlarga nisbatan 111,2 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko’rsatkichlari xizmatlarda – 115,1 % va sanoatda – 110,5 % qayd etildi.

## Yanvar-mart oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo’yicha deflyator indeksi

*(o‘tgan yilning mos davriga nisbatan % da)*

| | 2023- y. | 2024- y. |
|---|---|---|
| YAHM | 112,9 % | 111,2 % |
| Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi | 115,9 % | 109,4 % |
| Sanoat | 123,7 % | 110,5 % |
| Qurilish | 108,6 % | 102,5 % |
| Xizmatlar | 111,8 % | 115,1 % |

2024- yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik 5 835,7 mlrd. so‘mni tashkil etdi (2023-yilning yanvar-mart oylarida – 4 808,7 mlrd. so‘m). YAHMdagi ulushi 64,4 % ni (2023- yilning yanvar-mart oylarida – 64,5 %) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o‘tgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining ko‘payishi bilan bog‘liq.

## Yanvar-mart oylarida kichik biznesning hajmi va YAHMdagi ulushi

*(jamiga nisbatan %da)*



| | Hajmi, mlrd.so‘m | Ulushi, % da |
|---|---|---|
| 2023- yil | 4 808,7 | 64,5 % |
| 2024- yil | 5 835,7 | 64,4 % |

